

O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA HOLATGA TAQLID SO'ZLARING FONOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xurramova Dilorom Abduraim qizi

PhD tayanch doktoranti,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17898739>

Annotation:

This article presents a comparative analysis of the phonological features of Uzbek and Korean ideophones that imitate states or manner (i.e., mimetic/depictive words). In Uzbek, the semantics of state-imitating words is largely shaped by the opposition between open vs. close vowels (strong vs. weak intensity; large vs. small scale), as well as by consonantal features such as palatalization/softening, the typical CVC structure, and consonant gemination/clustering. In Korean, by contrast, the prosodic coloring and degree of meaning in such mimetic words are mainly determined by vowel harmony between “bright” vs. “dark” vowels and by the three-way consonant contrast: plain consonants (평음, *pyeong-eum*), tense consonants (경음, *gyeong-eum*), and aspirated consonants (격음, *gyeok-eum*), which serve to intensify the expression or add a rougher nuance. On the basis of illustrative examples, the study summarizes both the shared and language-specific aspects of the phonosemantic mechanisms in the two languages.

Keywords: state-imitating words, ideophone/의태어, phonosemantics, open–close vowel opposition, vowel harmony, plain consonants (평음, *pyeong-eum*), tense consonants (경음, *gyeong-eum*), and aspirated consonants (격음, *gyeok-eum*), reduplication.

Аннотация: В статье в сопоставительном плане рассматриваются фонологические особенности узбекских и корейских слов, имитирующих состояние (образоподражательных/миметических единиц). В узбекском языке семантика таких слов в значительной мере определяется оппозицией широких и узких гласных (сильная–слабая интенсивность, большой–малый размер), а также участием согласных (смягчение, типичная структура CVC, удвоение/сочетание согласных). В корейском языке, напротив, оттенок звучания и степень значения миметических слов главным образом обусловлены гармонией «светлых» и «тёмных» гласных и трёхчленной классификацией согласных: простые (평음, *pyeong-eum*), напряжённые (경음, *gyeong-eum*) и придыхательные (аспирированные) (격음, *gyeok-eum*), что служит для усиления выразительности или придания более грубого оттенка. На основе примеров обобщаются общие и специфические для каждого языка стороны фоносемантических механизмов.

Ключевые слова: слова, имитирующие состояние, идеофон/의태어, фоносемантика, оппозиция широких–узких гласных, гармония гласных, простые (평음, *pyeong-eum*), напряжённые (경음, *gyeong-eum*) и придыхательные (аспирированные) (격음, *gyeok-eum*), редупликация.

Annotatsiya:

Maqolada o'zbek va koreys tillaridagi holatga taqlid so'zlar (obrazga taqlid)ning fonologik xususiyatlari qiyosiy yoritiladi. O'zbek tilida holatga taqlid so'zlar semantikasida unlilarning keng–tor oppozitsiyasi (kuchlilik–kuchsizlik, kattalik–kichiklik), shuningdek undoshlarning ishtiroki (yumshoqlashish, so'zning CVC tipidagi tuzilishi, qo'sh undoshlilik) yetakchi omil ekanligi ko'rsatiladi. Koreys tilida esa holatga taqlid so'zlarning ohang va ma'no darajasi, asosan, yorug'/qorong'u unlilar uyg'unligi hamda undoshlarning uch turi (평음 (pyeong-eum) — *oddiy / tarang bo'lmagan* undoshlar; 경음(gyeong-eum) — *qattiq, tarang undoshlar*; 격음(gyeok-eum) — *kuchli, nafasli (aspiratsiyali) undoshlar*) orqali kuchaytirish/qo'pollashtirish bilan belgilanadi. Misollar asosida har ikki tildagi fonosemantik mexanizmlarning umumiy va farqli jihatlari umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: holatga taqlid so'z, ideofon/의태어, fonosemantika, keng–tor unli, unlilar uyg'unligi, (평음 (pyeong-eum) — *oddiy / tarang bo'lmagan* undoshlar; 경음(gyeong-eum) — *qattiq, tarang undoshlar*; 격음(gyeok-eum) — *kuchli, nafasli (aspiratsiyali) undoshlar*) reduplikatsiya.

Kirish

Holatga taqlid so'zlar voqelikdagi ko'rinish, holat va harakatni “tasviriy belgilar” orqali ifodalab, nutqning emotsional-ekspressiv qatlamini sezilarli kuchaytiradi. Ularning asosiy xususiyati shundaki, semantika ko'pincha bevosita fonologik qurilishning o'zida “kodlanadi”: ya'ni ma'no faqat leksik birlik sifatida emas, balki tovush tarkibi, bo'g'in tuzilishi, takrorlanish (reduplikatsiya) va tovushlar almashinuvi orqali ham yuzaga chiqadi. Natijada holatga taqlid birliklar oddiy “tasvirlash”dan ko'ra aniqroq effekt beradi: ko'rinishning dinamikligi (tez–sekin), ko'lamning darajasi (katta–kichik), intensivlik (kuchli–kuchsiz), yorqinlik va “yengillik–og'irlik” kabi parametrlar fonetik signal sifatida tinglovchi ongida jonli obrazga aylanadi.

O'zbek tilida bu fonosemantik mexanizm, avvalo, unlilarning keng–tor oppozitsiyasi va undoshlarning artikulyatsion xususiyatlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi: unli almashinuvi holatning “kattalashuvi–kichrayishi”, “kuchayishi–pasayishi” singari gradatsion ma'nolarni nozik farqlashga xizmat qiladi; undoshlar esa zarb, yumshoqlik, sirg'alish, to'xtalish kabi tasviriy effektni kuchaytiradi. Shuningdek, taqlid birliklarning bo'g'in modeli (masalan, qisqa va keskin CVC tipidagi tuzilish), qo'sh undoshlilik yoki takroriy tuzilma kabilar ham semantik “tezlik” va “intensitet”ni oshiruvchi formal vosita vazifasini bajaradi (Qo'ng'urov).

Koreys tilida holatga taqlid (의태어) birliklarining fonologik semantikasi ko'pincha tovushlarning ichki tizimli oppozitsiyalari orqali shakllanadi: unli uyg'unligi va undoshlarning turli fonatsion turlari (oddiy–tarang–nafasli) holatning kuchi, qattiqligi, keskinligi yoki yumshoqligini farqlashda faol ishlaydi. Bundan tashqari, koreys tiliga xos reduplikatsiya modeli ham tasviriylikni kuchaytirib, holatning davomiyligi, takroriyliigi yoki tarqoq ko'rinishini (bir maromda ketish, bo'linib-bo'linib ko'rinish) sistematik ifodalash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, o'zbek va koreys tillarida holatga taqlid so'zlar fonologiyasini qiyosiy ko'rish ikki muhim natijaga olib keladi: birinchidan, har ikkala tilda ham tovush–ma'no bog'lanishi (fonosemantika) universal tendensiya sifatida ko'rinishini, ya'ni “tovush tanlovi”

tasviriy parametrlarni belgilashini ko'rsatadi; ikkinchidan esa, bu universal asos har bir tilda o'ziga xos fonologik resurslar orqali amalga oshirishini ochib beradi. Demak, qiyosiy tahlil holatga taqlid so'zlarning umumiy qonuniyatlarini (ekspressivlikni fonologik shakl bilan kuchaytirish) va tilga xos mexanizmlarini (o'zbekchada bo'g'in/undosh strukturalari, koreyschada fonatsion oppozitsiyalar va reduplikatsiya) aniqlash uchun samarali metodologik yo'l bo'lib xizmat qilad

Metodologik yondashuvlar

Hozirgi o'zbek tilida jami 6 ta unli(a, i, u, e, o, o') va 23 ta undosh(b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng) tovush mavjud [1]. O'zbek tilida taqlid so'zlar fonetik shakllanish jihatidan juda boy va rang-barang xususiyatga ega [1:46]. O'zbek tilida taqlid so'zlarning fonetik shakllanishi rang-barang bo'lib, unlilar, ko'proq, tembr va intensitetni farqlashga xizmat qiladi [2: 81]. O'zbek tilid keng unlilar (a, o) va o'rta keng (o') kuchlilik, kattalik, "ko'proqlik"ni bildiradi: *mo'lt-mo'lt, lop, salang-salang, lang, dang, apil-tapil, alang-jalang, hang-mang, qalt-qalt*. Masalan, *apil-tapil*da keng a unlisi ta'sirida harakat shosha-pisha, naridan-beri bajarilishini ifodalaydi). Aksincha *tor unlilar (i, u)* nisbatan kuchsizroq, kichikroq, mayda harakat/holat tasvirini bildiradi: *g'ivir-g'ivir, dik-dik, lik-lik, hilp-hilp, pir-pir, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir* va b. Masalan, *pildir-pildir*dagi i unlisi harakatning yengil, mayda qadamli/tez ko'rinishini beradi.

Koreys tilida taqlid so'zlarda umumiy ma'no bir xil bo'lsa ham, unli va undoshlarning ishtirokiga ko'ra ohang va ma'no darajasi o'zgarishi mavjudligi qayd etiladi [4:17]. Koreys tilida unlilari yorug' (양성모음) va qorong'u (음성모음) guruhlariga ajratilib, ayniqsa taqlid so'zlarda unlilar uyg'unligi tamoyili keng qo'llaniladi [5:11-12]. Yorug' unlilar (ㅏ a, ㅑ ae, ㅓ ya, ㅕ yae, ㅗ o, ㅛ wa, ㅜ wae, ㅠ oe, ㅡ yo, ㅣ i) ko'proq yorqin, kichik, yengil, tor, ingichka, tiniq taassurotlarni beradi; Qorong'u unlilar (ㅓ eo, ㅕ e, ㅗ yeo, ㅛ ye, ㅜ u, ㅠ wo, ㅡ we, ㅣ wi, ㅠ yu, ㅡ eu) esa qorong'u, katta, og'ir, keng, qalin taassurotlarni ifodalaydi. Masalan, 강충강충 [kkangchong-kkangchong] (ㅏ / ㅓ — yorug'): quyonning yengil, yoqimli, kuch bilan sakrab yurishi va 강충강충 [kkeongchung-kkeongchung] (ㅏ / ㅜ — qorong'u): o'sha holatning og'irroq, kuchliroq taassurotli varianti hisoblanadi. Shu kabi, 방긋방긋 [banggeut-banggeut] (ㅏ — yorug'): og'izni chiroyli, birozgina ochib, ovozsiz yengil tabassum; 벋긋벋긋 [beonggeut-beonggeut] (ㅏ — qorong'u): og'izni kengroq ochib, ovozsiz yengil kulish; 반짝반짝 [banjjak-banjjak] (ㅏ — yorug'): kichik nur/yog'dularning ketma-ket paydo bo'lib g'oyib bo'lishi; 번쩍번쩍 [beonjeok-beonjeok] (ㅏ — qorong'u): kattaroq nur/yog'dularning kuchliroq ko'rinishi.

Muhokama

Tahlil qilingan material asosida quyidagi umumlashtirishlarni yanada batafsilroq shakllantirish mumkin:

Unli asosli semantik gradatsiya har ikki tilda mavjud, biroq kodlash mexanizmi turlicha ishlaydi. Har ikkala tilda ham holatga taqlid so'zlar semantikasidagi "darajalash" (gradatsiya) ko'pincha unlilar almashinuvi orqali yuzaga chiqadi. Bunda unli fonemalar nafaqat

artikulyatsion jihatdan (keng–tor, old–orqa, lablangan–lablanmagan), balki akustik “ta’sir kuchi” nuqtayi nazaridan ham ma’no farqlashga xizmat qiladi. Natijada bir xil tasviriy asosga ega birliklar unlilar o’zgarishi bilan turli “intensitet”, “hajm”, “salmoq” va “ta’sir” darajasini ifodalaydi.

O’zbek tilida bu jarayon, asosan, keng–tor unli oppozitsiyasiga tayanadi: keng unlilar (a/o/o’) odatda holatning “kattaroq ko’lamda”, “kuchliroq”, “salmoqliroq” ko’rinishini signal qiladi; tor unlilar (i/u) esa aksincha “maydaroq”, “ingichkaroq”, “yengilroq”, “kuchsizroq” tusni berishga moyil bo’ladi. Shuning uchun taqlid so’zlar tizimida unli tanlovi “kattalik–kichiklik”, “kuchlilik–kuchsizlik” kabi parametrlarning semantik markeri sifatida ishlaydi [1;46]. Muhimi, bu yerda unli almashinuvi ko’pincha *bir xil struktura* ichida (masalan, CVC yoki reduplikativ model doirasida) sodir bo’lib, tilda “fonetik minimal o’zgarish → semantik daraja farqi” tamoyilini kuchaytiradi.

Koreys tilida esa gradatsiya ko’proq yorug’/qorong’u (양성모음 ↔ 음성모음) unlilar uyg’unligiga bog’lanadi. Bu oppozitsiya oddiy “kattalik–kichiklik”dan kengroq fonosemantik spektrni qamrab oladi: “yengil–og’ir”, “yorqin–xira/qorong’u”, “yumshoq–dag’al”, “mayin–keskin” kabi kompleks kontrastlar aynan unli uyg’unligi orqali tizimli ifodalanadi [5:57]. Ya’ni koreyscha holat taqlidlarida unli tanlovi ko’pincha tasvirning hissiy–fizik rangini (perseptiv bo’yoqni) belgilaydi: bir xil harakat/hodisa tasviri “yengilroq–mayinroq” yoki “salmoqliroq–bosiqliroq” ko’rinishda berilishi mumkin.

Takroriy/reduplikativ shakllanish har ikki tilda ekspressivlik va tasvir “dinamikasi”ni kuchaytiruvchi universal vosita sifatida ko’rinadi. O’zbek va koreys tillarida holatga taqlid so’zlarning katta qismi reduplikatsiya (to’liq yoki qisman takror) orqali tuziladi. Reduplikativ modelning asosiy vazifasi — tasvirning davomiyligi, ketma-ketligi, takroriyligi yoki tarqoq-distributiv xarakterini (bir nuqtada emas, ko’p nuqtada/ko’p marta sodir bo’lish) nutqda sezdirishdir. Bunday birliklar ko’pincha adverbial (hol) vazifada kelib, fe’l bildirgan harakatning “qanday” sodir bo’lganini aniqroq, obrazliroq ochadi.

O’zbek tilida milt-milt, lim-lim kabi shakllar odatda hodisaning *uzluksiz emas*, balki uzilib-uzilib, mayda impulslarda yoki marom bilan takrorlanib sodir bo’lishini ifodalaydi. Reduplikatsiya bu yerda ikki tomondan ishlaydi: miqdoriy-aspektual (necha marta/uzoq-qisqa) ma’no qo’shadi; prosodik (ritm va urg’u) orqali ekspressivlikni oshiradi — takroriy birlik tinglovchida “ko’z oldiga keltirish” effektini kuchaytiradi. Natijada reduplikativ taqlidlar matnda tasvirning “kadrlar ketma-ketligi”ni yaratib, tasvirchanlikni yuqori darajaga olib chiqadi.

Koreys tilida 빙글빙글 [binggeul-binggeul], 반짝반짝 [banjjak-banjjak] kabi formalar juda produktiv bo’lib, reduplikatsiya ko’pincha hodisaning iterativligi (takror-takror), kontinuitet (davomiy), yoki tarqoq (bir maromda taralib ketuvchi) xarakterini grammatikdan ko’ra leksik-fonologik yo’l bilan kodlaydi. Ayniqsa, koreyscha reduplikativ ideofonlarda takroriy shakl ko’pincha tasvirga “kinetik” effekt beradi: harakatning yo’nalishi (aylanish, titrash, yaltirash) va uning sezilish intensivligi birgalikda “eshitiladigan/ko’rinadigan obraz” sifatida tiklanadi. Shu bois reduplikatsiya koreys tilida faqat kuchaytirish emas, balki tasvirning strukturasini (qanday davom etishi va qanday ko’rinishda namoyon bo’lishini) belgilovchi markaziy mexanizm ham hisoblanadi.

Xulosa

Berilgan materialga tayangan holda aytish mumkinki, o'zbek va koreys tillarida holatga taqlid so'zlarning fonologik tabiatida fonosemantik qonuniyatlar kuchlidir. O'zbek tilida holatga taqlid so'zlarning ma'no darajasi asosan keng-tor unli va undosh karkasi (CVC tipi, auslautdagi qo'sh undosh) orqali kodlanadi. Koreys tilida esa holatga taqlid so'zlarning semantik ohangi yorug'/qorong'u unlilar uyg'unligi orqali muntazam farqlanadi. Shu asosda, keyingi tadqiqotlarda holatga taqlid so'zlarni korpus materiallari asosida chastota, kontekst va stilistik vazifalar bo'yicha kengroq tekshirish, ayniqsa o'zbek tilida holatga taqlid so'zlar fonologiyasining sistemali modellarini (auslaut klasterlari, reduplikatsiya turlari, unli almashinuvi) alohida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qo'ng'urov R. (1966) *O'zbek tilida tasviriy so'zlar*. Toshkent: Fan.
2. Kaxarova I. S. (2024). *Ingliz va o'zbek tillaridagi emotive, taqlid va modal so'zlarning lingvopragmatik tadqiqi*. DSc dissertatsiya. Toshkent.
3. Журавлёв А.П. (1981). Звук и смысл. — М.
4. 티티아 마나가제 (2012). *한국어와 그루지아어의의성어의태어대조 연구*. 경희대학교 대학원 국어국문학과.
5. 호평 (2013). *교육용 한국어의성어의태어의 목록 선정 및 유형 분류*. 연세대학교 대학원 한국학협동과정.